



100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 31-10-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

221294 - SONLI

Obyekt nomi: O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Muhammad Yusuf ko'chasi manzilida joylashgan bino-inshootlar va avtoturargoh bilan jihozlangan ko'p kvartirali turar joy majmuasi.	
Buyurtmachi:	SJT ESTATES MCHJ QK
Bosh loyihachi:	"TECA GENERATE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	027618

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish boshqarmasining 2024-yil 20-apreldagi 1726269-169929-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 20-maydagi 1726-1726269-188134-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda 2024-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.

1.4. Loyiha tashkiloti va buyurtmachi o'rtasida loyiha xujjatlarini ishlab chiqish uchun 13-mart 2024-yilda tuzilgan SJT/DPR/13-03 sonli shartnoma.

1.5. "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ tomonidan 2024-yil 25-sentabrda berilgan 05-2074-sonli texnik shart.

1.6. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ tomonidan 2024-yil 7-avgustda berilgan 270/4-3515-sonli texnik shart.

1.7. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2024-yil 23-sentabrda berilgan 090402-sonli texnik shart.

1.8. «O'ZGAShKLITI» MChJ Toshkent shahar va viloyati filiali tomonidan 2024-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi texnik hisobot.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning arxitektura va konstruktiv yechimlarining elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

2.2. Obyektning issiqlik texnik hisobi.

2.3. Obyektning energetik passporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Toshkent shahrining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi bo'yicha uchastkaning seysmikligi 8 ballga baholangan.

Binoning poydevori uchun asos bo'lib MGE-1 grundi xizmat qiladi.

MGE 1 - jigarang rangdagi, har xil zichlikdagi, nam, qattiqdan yumshoq-plastmassa konsistensiyaga qadar cho'kma, ham qo'shimcha yuklar ostida, ham tabiiy bosim ostida bo'lgan loyga o'xshash bo'lgan tuproqlar.

Element qalinligi - 10,8-12,5metrgacha o'zgarib turadi.

Tuproqning cho'kuvchanligi - I (birinchi) va II (ikkinchi).

MGE 2 - 12,0-13,2 m chuqurlikdan ochiladi va suv bilan to'yingan toshlarni o'z ichiga oladi. Toshlar yaxshi cho'kindi va magmatik jinslardan tashkil topgan yumaloq, mayda fraksiya.

Element qalinligi - 16,8-18,0 m.

Yer osti suvlari yer yuzasidan (yanvar 2024 y.) 15,9-16,6 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0,70 m.

3.2. Bosh reja.

Bosh rejada Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Muhammad Yusuf ko'chasida joylashgan.

Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar ko'zda tutilgan:

-Blok 1;

-avtoturargoh;

-bolalar maydoni;

-Sport mashg'ulotlari uchun maydoncha;

-Stritbol uchun maydon;

-Chiqindi saqlash maydoni;

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Umumiy maydoni - 0,3051 ga;

Qurilish maydoni - 949,91 m²;

Yashil maydon hududi - 486,49 m²;

3.3. Arxitekturaviy yechimlar.

Blok 1 - 16 qavatli, yerto'lali va yerosti avtoturargohli, bir yo'lakli, texnik qavatli murakkab shaklida bo'lib, rejadagi tarx o'lchami o'qlarda 25,3x26,5 m ni tashkil etadi. Yerto'laning balandligi h=4,02m. 1-qavat balandligi h=3,12m, 2-16 qavatlar balandligi (poldan shiftgacha) h=2,82m.

Yerto'lada nasosxona, yordamchi xonalar, elektr shit xonasi va boshqalar joylashgan.

Birinchi qavatda ofis xonalari, tambur, vestibul, zal, yo'lak, lift, zina maydoni, yuvinish, hojatxona va boshqalar joylashgan.

Yuqori qavatlarda 80 dona xonadonlar joylashgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Umumiy maydoni – 9547,13 m²;
Qurilish maydoni – 785,44 m²;
Qurilish hajmi – 39271,79 m³;

Tashqi pardoqlash:

Fasadlar devorlari va poypesh qismlari – fasad suvogʻi, dekorativ panellar bilan qoplangan.

Ichki pardoqlash:

Shift – suvoq, suvli boʻyoq bilan boʻyalgan;

Devorlar – suvoq, boʻyoq bilan boʻyalgan, nam xonalarda devorlar shift balandligigacha keramik plitkalar bilan qoplangan.

Romlar – PVX.

Eshik – metal va boshqalar.

Pollar – beton, keramogranit.

Avtoturargoh– 2 blokga boʻlingan boʻlib, deformatsion chok mavjud, toʻrtburchak shakldagi tarx oʻlchamlari 50,2x49,2m. Balandligi h=3,38m.

Toʻxtash joyida mexanizatsiyalashgan toʻxtash joyi tizimi (MPS) qoʻllanilgan. 80 mashinalar toʻxtash joyi mavjud.

Binoning texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari

Bino umumiy maydoni – 1970,04m²;
Qurilish maydoni – 211,36m²;
Qurilish hajmi – 7713,36m³;

3.4. Konstruktiv yechimlari;

(Blok1).

Poydevorlar – 1500 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton plita.

Yertoʻla devorlari – qalinligi 250 mm boʻlgan monolitli temirbeton;

Devorlari – monolitli temirbeton;

Tashqi devorlar – gazoblok bilan toʻldirilgan.

Pardevorlar – gazoblok;

Zinapoya – monolitli temirbeton;

Tom – tekis.

Avtoturargoh.

Konstruktiv sxemasi – monolitli temirbeton.

Diafragma– monolitli temirbeton.

Poydevor – ustunli monolitli temirbeton.

Ustun – kesimi 500x500mm boʻlgan monolitli temirbeton.

Rigel va balka – kesimi 450x500(h)mm boʻlgan monolitli temirbeton.

Devorlar – qalinligi 250mm boʻlgan monolitli temirbeton.

Orayopma – monolitli temirbeton.

3.5. Yongʻin xavfsizligi.

Konstruktiv yongʻin xavfi turi – S0.

Funksional yongʻin xavfi turi – F1.3.

Devorlar fasadining tashqi pardozi yonmaydigan materiallardan tayyorlangan.

Loyihada ichki yongʻinga qarshi suv quvuri, havo bosimini oshirish uchun avtomatik suvli yongʻin oʻchirgich yertoʻlada 2 ta yongʻin oʻchirish nasoslari mavjud (asosiy, zaxira), yongʻin signalizatsiyasi va yongʻin haqida xabar berish, qavat yoʻlaklaridan yongʻin paytida tutun chiqarish, lift shaxtalariga havo kiritish koʻzda tutilgan.

3.6. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo'llangan, shuningdek deraza va eshiklar konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;
- devorlar tashqi tomondan qalinligi mineral plita issiqlik qoplamasi bilan qoplangan.
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan.
- 8 ta quyosh panellari tom qismida joylashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha ichki muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, ichki elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik, yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART va loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

-Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-yil 1-avgustdagi 138035039-sonli xulosa).

- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali (2024-yil 25-sentabrdagi 01-02/14-2103-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi).

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (2024-yil 18-iyuldagi 743-3 sonli xati va ilovasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga barcha asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Tashqi muhandislik tarmoqlari ekspertiza ko'rigiga taqdim etilmadi (Buyurtmachining 24.10.2024-yildagi SJT-27-sonli xati).

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Tashqi muhandislik tarmoqlari loyiha-hujjatlari ishlab chiqilib ekspertiza ko'rigiga taqdim etilishi shart (Buyurtmachining 24.10.2024-yildagi SJT-27-sonli xati).

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Muhammad Yusuf ko'chasi manzilida joylashgan bino-inshootlar va avtoturargoh bilan jihozlangan ko'p kvartirali turar joy majmuasi» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan

holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Abduraxmanova Dिल्фуза Baxromovna.

Ishtirokchi ekspertlar: Usmanov Aybek Daniyarovich, Maxmudov Sobir Rashidovich, Kosherbaev Muratbek Abatovich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Usmanov Kayrat Sharipbayevich, Yuldashev Maxmudjon Baxodirovich